

ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕҢДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

6-Зсан

*Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен длизимге алынды*

*Карақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылды 14-февральдан длизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

6-Зсан 2023

декабрь

Шолкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриў Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:
А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Маңсет АЙЫМБЕТОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Нагмет АЙЫМБЕТОВ	Сафо МАТЧОН
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Фурқат РАЖАБОВ
Дилшодхұјжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Феруза САПАЕВА
Фарҳад БАБАШЕВ	Қаҳхор ТУРСУНОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Шахло БОТИРОВА	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Уролбой МИРСАНОВ	

Berdiyeva H. Aksilogik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Ergasheva O. O'quvchi-qizlarda milliy fazilatlarni rivojlantirishda ma'naviy qadriyatlarning o'rni

Choriyeva D, Abdiyeva Sh, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bilimlarini rivojlantiruvchi o'yinlar

Xayitov L. Bo'lajak defektologlarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish

Urakova Sh.K. "Malaka oshirish kurslari tinglovchilarida kreativlik kompetentligini rivojlantirish (Umumiyligda o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarini faoliyati misolida)

Maqsudov U. Abdullayev R. "Tarbiya" fanini o'qitishda o'rta osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlarini o'rganishning nazariy asoslari

Ibragimova Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga nisbatan mas'uliyatli munosabatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va tamoyillar

Yakubova M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachilarning kasbiy va shaxsiy sifatlari.

Qosimova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishda o'rta arifmetik qiymatni topishga doir masalalarining o'rni

Комолова И. Олий таълим muассасаси талабаларида арт-педагогик тизимини таркиб топтиришнинг педагогик жihatларини такомиллаштириш

Шербутаева Ш. У. Проведения занятий в дошкольных образовательных организациях по ознакомлению дошкольников с природой

Халбаева Г. Механизмы совершенствования процесса подготовки детей К школе

ТАСВИРИЙ САЪННАТ

Ko'kiyev B. Talabalarga loyihalashtirish va proyeksiyalash usullarini o'qitishning ba'zi usullari

Mardov S.X. Muhandis-quruvchilarining dizayn fikrlashini rivojlantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasi

Mirsoatova L. Kompyuter grafikasi vositalarini mustaqil ta'lim ko'nikmalarida rivojlantirish kurslariga integratsiyalash

Bozorov F. Tasviriy san'at orqali yoshlardagi intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish

ФИЗИКАЛЫҚ ТЭРБИЯ ҲЭМ СПОРТ

Arabboyev H. O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlashning pedagogik mazmuni

To'xtayev J. Talabalarni kasbiy ko'nikmlari va shaxsiy sifatlarini voleybol vositalari yordamida rivojlantirish

Muxametov A. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni reabilitatsiya qilish darslarida yuklamalarni standartlashtirishning asosiy prinsip va komponentlari

Karimov F. Sog'lomlashtirish mashqlarining inson hayotidagi o'rni

Yuldashev M. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirish mazmuni

Quvatov E. Xalqaro kurash turlari vositalarining integratsiyasi asosida kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishning nazariy asoslari

TASVIRIY SAN'AT ORQALI YOSHLARDAGI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Bozorov F.T.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: Potensial, interaktiv, interfaol, intellekt, eksperiment, pedagogik, visual, shedevr.

Ключевые слова: Потенциал, интерактив, интерактив, интеллект, эксперимент, педагогический, визуальный, шедевр.

Key words: Potential, interactive, interactivity, intelligence, experiment, pedagogical, visual, masterpiece.

Dunyo tamaddunining zamonaviy globallashuv jarayonida san'atning kishilar hayotida o'rni katta. Shu jumladan san'atning ahamiyatga molik joylari ham ko'p. Tasviriy san'at madaniyat va shaxsiyatning muhim bir ifodasi hisoblanadi. U o'zining turlari va janlari, undagi serjilo turfa ranglari, shakllari hamda kompozitsiyasi orqali odamlarning, atrof-muhitning milliy, etnik, ijtimoiy va boshqa go'zal jarayonlarni ifoda etishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Estetika va go'zallikning yuqori e'tibor bilan qabul qilinishi tasviriy san'atga ham bog'liq. San'at asarlari, g'oyalar va boshqa usullar orqali zamonaviy estetik qarashlarni va go'zallikka yanada yangicha tus bera oladi. Tasviriy san'at ijodiylik va innovatsiyaga asos bo'lishi ham mumkin. Yaratuvchilik, yangiliklar va texnikalar bilan san'at asarlari yaratish, multimedia va interaktiv texnologiyalar bilan eksperiment qilish zamonaviy tasviriy san'atning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Bu esa bugungi zamonaviy davr talabi.

Darhaqiqat tasviriy san'at biznes va turizm sohasida ham o'ringa ega. San'at asarlari va hamma turdag'i tasviriy san'at (miniatyura, grafika, rangtasvir va boshqalar) mahsulotlari, biznes faoliyatlarda brending, reklama va sifatlari turizmni kuchaytirishda keng foydalilanadi.

Yuqorida qayd etgan zamonaviy davrda ta'lim tizimi ham eskilikdan farqli ravishda yangicha innovatsiya va pedagogik texnologiyalarga boy ta'lim berish shartlarini qo'yamoqda. Jumladan, tasviriy san'at darslarida talabalarning intellektual salohiyatini shakllantirish masalasi zamonaviy ta'limda dolzarb mavzudir. Hozirgi jamiyatga mustaqil va erkin fikrlaydigan,

voqelikda yuzaga kelayotgan muammolarni yecha oladigan, qolaversa ijodiy hal qila oladigan kadr va mutaxassislar zarur. Bunga sabab, atrof-muhit bilan birga yashash bilan bir qatorda, unda o'zini ijodiy anglay oladigan odamlar har sohada kerakdir. Oliy ta'limga talabalarni uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish vazifasi eng muhim vazifalardan biridir. Intellektual potentsialni namoyon etish orqali shaxs atrofdagi dunyoga moslashadi, ijodiy salohiyatni kengaytirish bilan atrofdagi dunyoni shaxs ehtiyojlariga moslashtiradi. Shuning uchun, talabalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ta'limga yangi mazmuni, estetik fanlarga, jumladan tasviriy san'atga e'tiborning kuchayishi ta'lim jarayoniga shaxsniga rivojlantirishning samarali usullarini kiritishni taqozo etadi.

Har bir ijodkor o'qituvchi tasviriy san'atning har bir darsida talabalarda fanga qiziqish uyg'otish, ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Zamon bilan hamnafas talabalarni o'qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyatini hal qilish darajasi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Har bir talabaga qiziqish bilan o'qishga intilish paydo bo'lishi uchun individual yondashuv zarurdir. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish auditoriyadan tashqarida talabalarning intellektual va ijodiy qobiliyatları rivojlantirishning yetakchi tarkibiy qismidir. Shu sababli har qanday ishni bajarayotganda talaba unga ijodiy yondashishi shart. Buning uchun o'qituvchi interfaol innovations metodlaridan foydalanishi kerak. Zero, har bir talabaning qobiliyati bor va darsda passiv talabaga individual yondashish, ularni aqli, faol va ijodkor bo'lishi hamda ta'lim jarayoniga jalb qilishi shart. Bunday yondashuv bilan talabalarning ijodiy faoliyati ortadi.

San'at darslarida quyidagi asosiy maqsadlar qo'yilishi tafsifa etiladi:

- a) talabalarni qiziqtirish, ularning intellectual-ijodiy salohiyatini rivojlantirish;
- b) tarbiyaviy motivatsiyani oshirish;
- v) ta'lim jarayonini faollashtirish.

Intellektual salohiyat, mantiqiy fikrlash ijodiy qobiliyatlarini yuqori darajada shakllantirish imkonini beradi. Intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yangi ko'nikmalarni egallashga va ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

Oliy ta'limga asosiy va qiyin vazifalardan biri bu intellektual va ijodiy qibiliyatlarini shakllantirishdir. Ijod mustaqil, fikrlashning o'ziga xosligi, munosabatlarni boyligini ifodalaydi. Bu fazilatlarni rivojlantirish istagi bizni talabalar bilan ishlashda harakatga keltiradi.

Ijodiy fikrluvchi insonda har qanday mehnatdan ijodiy "lazzat" topish, har bir ishdan zavqlanish va yuqori natijalarga erishish jarayonlari ancha yengil kechadi. Ammo tabiat iste'dodlarga kelganda unchalik ham saxiy emas, ular olmos kabi kamdan-kam uchraydi. Biroq, xuddi shu tabiat har bir bola uchun rivojanish imkoniyatini beradi. Bunday rivojanishni inson mutaxassisiga aylanib bo'lgach va undan muayyan darajadagi muammolarni hal qilish talab qilinganda emas, balki ancha avval boshlashi lozim.

Aql-idrok - bu shaxsnинг hayotiy vaziyatlarga psixologik moslashuvi, voqelikning muhim munosabatlarini tushunish, shaxsniga jamiyatning ijtimoiy-madaniy tajribasiga kiritish mexanizmi demakdir. Intellektual faoliyat o'zining psixologik mazmuniya muammolarni hal qilish, noma'lum holatni qidirish jarayoni sifatida ishlaydi, subyektning atrofdagi voqelik bilan o'zaro ta'siri sifatida amalga oshiriladi. Shunday qilib, biz intellektning rivojanishini o'z-o'zini mustaqil ijodiy qurish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini takomillashtirish jarayoni deb tushunamiz. Muallif Tereza Amabil "Ijodkorlik bilan o'sish" asarida ijodiy muhit yaratish orqali mavhum va analitik fikrlashni rivojlantirishga, ularning fazoviy tasavvur o'tkirligini oshirishga va lateral fikrlashni qabul qilishga yordam berishini tushuntiradi.

Talabalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish har qanday faoliyatning asosiy funksiyasini ya'ni o'z o'zini anglash funksiyasini bajaradi, bu o'z "men" ni boshqalar tomonidan tan olish istagida, uning to'liq namoyon bo'lishi uchun sharoitlarni mustaqil yaratishda namoyon bo'ladi (E.V. Bondarevskaya). Moslashuv funksiyasi adaptatsiyani uzlucksiz jarayon sifatida va shaxsnинг ijtimoiy va tabiiy muhit sharoitlariga faol moslashishi natijasi sifatida ta'minlaydi. Fikrlash funksiyasining mavjudligi intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida

bilimning chuqur va ongli holatini amalga oshirishga imkon beradi, bu esa keyinchalik shaxsnинг о‘злигини rivojlantirish vositasi (usullari) ga aylanadi.

Tasviriy san’at, talabalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularning tushunchalarini va fikrlarini ko‘rsatish va rivojlanishiga yordam beradi. Bu usul orqali, talabalar o‘zlarining tashqi dunyosiga qo’shilish orqali, ularning tasavvurlarini rivojlantirish va yangi tushunchalar olishlari mumkin.

Tasviriy san’at talabalarning dunyo ko‘rinishini va uni anglashda muhim bo‘lgan ko‘nikmalar olishadi. Ular turli asarlar, zamonaviy dizayn va boshqa texnikalarning qo‘llanilishi orqali o‘zlarining tushunchalarini ifodalaydilar. Bu esa ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradi va yangi yaratuvchilikni rivojlantirishga imkon beradi.

Tasviriy san’atning boshqa bir afzalligi shundaki, u insonning iqtisodiy hamda ijtimoiy dunyosiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa talabalarning dasturlash va amaliyot bilan bog‘liq mavzularni osonlashtirib, ularga yangi yaratuvchilikni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Bundan tashqari, tasviriy san’at orqali talabalar jamiyatagi muammolarni ham aniqlay oladilar va ularning ijtimoiy masalalarga qarashlari uchun ham foydali xizmat qiladi. Shunday qilib, tasviriy san’at talabalarning intellektual qobiliyatlarini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Tasviriy san’at orqali intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun quyidagi yo‘llardan foydalanish mumkin:

1. G‘oyalar va tasvirlar yaratish: Tasviriy san’at, yoshlarga o‘z g‘oyalarini va tasvirlarini yaratish imkonini beradi. Masalan, kompozitsiya yaratish orqali o‘z g‘oyalarini ifoda qilish va ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

2. Tahliliy fikrlash va muhokama qilish: Tasviriy san’at asarlarini tahlil qilish, fikrlash va muhokama qilish, asarlarda ifodalangan fikrlarni qamrab olish, ma’nolar va tarixiy konteksti o‘rganish asosida yoshlarda intellektual qobiliyat rivojlantiriladi.

3. Tarixiy va madaniy bilimlarni o‘rganish: Tasviriy san’at, tarixiy va madaniy bilimlarni o‘rganishga ko‘maklashadi. San’at asarlarini ko‘rib chiqish, tarixiy voqealarni tahlil qilish va madaniy meroslar bilimini o‘rganish orqali yoshlarda tarixiy va madaniy bilimlarni rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

4. Estetik qarashlarni rivojlantirish: Tasviriy san’at estetik qarashlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Ranglarni, shakllarni, kompozitsiyalarni baholash, tasviriy qobiliyatni rivojlantirish orqali yoshlarda estetik qarashlarni shakllantiriladi.

5. Hamkorlik va ijodiy jamoatchilik: Tasviriy san’at, yoshlarga boshqalar bilan hamkorlik qilish va ijodiy jamoatchilik tajribasini oshiradi. Misol uchun, sayohat qilish, yoshlarda keng dunyoqarash va jamoatchilik bilan bog‘liqlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Tasviriy san’atning xohlagan janrini olmaylik, har biri o‘z ta’sir kuchiga ega. Biron kompozitsiya ishlashda albatta ijodkordan yuqori fikr, g‘oya va bilim zarur. Yaratilajak asar shunchaki ranglar uyg‘unligi emas, balki falsafiy ma’no-mazmunga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun albatta kitob ko‘p mutolaa qilinsa, tafakkur ham boyiydi. Intellektual ijodkor asarları ham shu sababli kuchli “shedevr” ga aylanadi.

Tasviriy san’at orqali intellektual qobiliyatlarini shakllantirish, yoshlarga o‘z g‘oyalarini erkin ifodalash, kreativ fikrlash, tafakkur va muhokama qilish, estetik va vizual tajriba olish, ilmiy-pedagogik tajribani oshirish imkonlarini beradi. Bu usul yoshlardagi intellektual va ijodiy rivojlanishi oshirishga yordam beradi.

Foydalilgan adabiyotlar:

1. Bozorov, F., & Baymetov, B. B. (2023). Using the still life genre of fine art in organizing group classes for students in higher pedagogical education. *european international journal of pedagogics*, 3(04), 5-12.
2. Toyir o‘g‘li, F. B. (2023). Ijodiy togaraklar orqali talaba-yoshlardagi tadbirkorlik konikmalarini shakllantirish texnologiyalari (tasviriy san’at). *Journal of new century innovations*, 27(4), 113-117.
3. Bozorov, F. (2022). Ijodiy to’garaklarda yoshlarni tasviriy san’atdan tavirlash malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. *Science and Education*, 3(8), 130-137.

4. Toyir ogli, B. F. (2023). Ijodiy togaraklar orqali talaba-yoshlardagi tadbirkorlik konikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari. *Journal of new century innovations*, 27(5), 58-60.
5. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Tasviriy san'atning fanlararo aloqalar tizimidagi o'mi. *PEDAGOGS Jurnalı*, 31(1), 142–148.

REZYUME

Ushbu maqolada tasviriy san'at orqali yoshlarni tafakkur qilish, fikrini erkin ifoda etish orqali intellektual salohiyatini oshirish, ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish masalalari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о вопросах мышления молодежи посредством изобразительного искусства, повышения их интеллектуального потенциала и формирования творческих способностей через свободное выражение своих мыслей.

SUMMARY

This article talks about the issues of thinking of young people through the fine arts, increasing their intellectual potential and developing creative abilities through the free expression of their thoughts.